

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 87 (1686), 2026-yil 2-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TIBBIYOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholiga malakali va zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish, sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, xususiy sektor imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda hududlarda tibbiyot infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Taqdimotda, avvalo, xususiy sektorning soha rivojidagi o‘mi va bu boradagi mavjud imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, 2016-yilda yurtimizda 3,2 mingta xususiy klinika faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2026-yilda ularning soni 8,7 mingtaga yetishi kutilmoqda. Xususiy tibbiyot yo‘nalishlari 39 tadan 116 taga, ushbu sektordagi koya o‘rinlari esa 16 mingdan 57 mingtagacha ko‘paydi. Xususiy sektorning umumiy koya fondidagi ulushi 12 foizdan 31 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Shu bilan birga, tizimdagi ayrim muammolar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, tibbiy xizmatlar sifati ustidan amaldagi nazorat mexanizmlari yetarli darajada samara bermayotgani, litsenziyalash shartlari zamon talablariga to‘liq javob bermasligi, xususiy klinikalar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning yagona elektron tizimda shakllanmagani, shuningdek, investitsiya loyihalari bilan manzilli ishlar tizimi yetarli emasligi qayd etildi.

Shu bois, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va uning mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar taqdim qilindi.

Xususan, tibbiy faoliyatni litsenziyalash bilan bog‘liq barcha vazifalar Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markaziga o‘tkazilib, 2026-yil 1-iyuldan litsenziyalash tartiblarini kuchaytirish, bemor xavfsizligi va tibbiy yordam sifatini ta‘minlashga doir 48 turdagi

litsenziya talablarining 14 tasini qayta ko‘rib chiqish taklif qilindi. Mazkur jarayonda ko‘p tarmoqli klinikalar faoliyatini to‘liq to‘xtatish amaliyotidan voz kechib, faqat aniq qoidabuzarlik aniqlangan yo‘nalish bo‘yicha cheklov qo‘llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, tibbiyot tashkilotlarining litsenziya talab va shartlariga rioya qilinishi bo‘yicha sifat nazorati kuchaytirilib, elektron axborot tizimida masofaviy baholab borish orqali nazorat qilish yo‘lga qo‘yildi.

Qolaversa, nodavlat tibbiyot tashkilotlariga litsenziya doirasidagi barcha yo‘nalishlarda budget mablag‘lari hisobidan tibbiy xizmat ko‘rsatishga ruxsat berish, akkreditatsiyadan o‘tgan xususiy muassasalarga transplantatsiya faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini taqdim etish, 2028-yildan boshlab akkreditatsiyadan o‘tmagan nodavlat va respublika darajasidagi davlat tibbiyot muassasalari bilan Sug‘urta jamg‘armasi tomonidan tibbiy xizmatlarning xaridini amalga oshirish taklif etildi.

2030-yil yakuniga qadar barcha davlat tibbiyot muassasalari bosqichma-bosqich, xususan, 2027-yil 1-aprelgacha 55 ta respublika, 2028-yil yakuniga qadar 413 ta hududiy hamda 2030-yil yakunigacha 3 mingdan ortiq tuman (shahar) davlat tibbiyot tashkilotlari faoliyati majburiy litsenziyalanadi.

Xususiy tibbiyotni rag‘batlantirish uchun iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralarini ham muhokama qilindi.

Jumladan, o‘lis hududlarda yangi klinikalar ochish uchun 200 million AQSH dollarlik imtiyozli kredit resursi ajratilishi, har bir loyiha uchun 10 yilgacha muddatga 10 million AQSH dollaridan kredit berish, asosiy stavkani 50 foiz qismi uchun kompensatsiya mexanizmini

qo‘llash nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mutaxassislariga ijtimoiy soliqni 1 foiz etib belgilash, tibbiy uskuna va butlovchi qismlar bo‘yicha bojxona imtiyozlari berish kabi yengilliklar taklif etildi.

Taqdimotda sohaga investitsiyalarni jalb qilishning yangi tizimi ham ko‘rib chiqildi.

Buning uchun Tibbiyot va farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligini tashkil etish, investorlarga konsalting va amaliy xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini professional asosda shakllantirish va ilgari surish mexanizmini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Xususan, agentlikka sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish, investitsiya va davlat-xususiy sheriklik loyihalariga ko‘maklashish, davlat tibbiyot tashkilotlarini boshqaruvga berish vakolati beriladi hamda agentlik ta‘sischiligida investitsiya loyihalarini shakllantirish, kelishish va amalga oshirishda ko‘maklashuvchi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi “Health Invest” kompaniyasi tashkil etiladi.

Xorijiy ekspertlar bilan birgalikda davlat tibbiyot muassasalarini korporativ boshqaruv tamoyillari asosida transformatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Shuningdek, xorijiy konsultantlarni jalb qilgan holda tibbiyot tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish va ishga tushirishga oid shaharsozlik hamda sanitariya qoida va me‘yorlari qayta ko‘rib chiqilib, xalqaro talablarga moslashtirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma‘qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sun‘iy intellekt va raqamlashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda raqamlashtirish va sun‘iy intellektni joriy qilish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish hamda insonlar hayotini yengillashtirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, AT xizmatlari va dasturiy mahsulotlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, sohada 300 ming nafar yoshlarni band qilish hamda BM Tning Elektron hukumat indeksida yurtimizni dunyoning yetakchi 30 davlati qatoriga kiritish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda raqamlashtirish sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta‘sir sezilarli darajada oshgan. Oxirgi besh yilda sohadagi yalpi qo‘shilgan qiymat o‘rtacha 24,8 foizga o‘sib, mazkur ko‘rsatkich YIM o‘sish sur‘atlaridan 3,5 barobar yuqori bo‘lgan. Axborot va aloqa tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 2017-yildagi 64,3 ming nafardan 108,8

ming nafarga, o‘zini o‘zi band qilganlar soni esa 10 mingdan 181 ming nafarga yetgan. Hozirgi kunda sohada 11 ming 900 dan ziyod korxonalar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning qariyb 1,4 mingtasi xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan.

Shu bilan birga, hozirda sun‘iy intellekt yo‘nalishida 100 ga yaqin amaliy loyiha va 200 dan ortiq tajriba-sinov tashabbuslari boshlangan. Jumladan, Olmaliq konmetallurgiya kombinatining 3-mis boyitish fabrikasida sun‘iy intellekt yordamida ishlab chiqarish janjirini real vaqt rejimida tahlil qilish yo‘lga qo‘yilgani natijasida energiya sarfi 10 foizga, tannarx 15 foizga qisqargan, mehnat unumdorligi esa 10 foizga oshgan.

Bunday loyihalar samaradorligini ta‘minlash uchun 24 million dollarlik GPU-klasserga ega sun‘iy intellekt infratuzilmasi ishga tushirilgan. Yil yakunigacha qo‘shimcha hisoblash quvvatlarini kengaytirish uchun

yana 45 million dollarlik uskunalarini jalb qilish rejalashtirilgan. Ta‘kidlanidek, endi bu infratuzilmadan to‘g‘ri va samarali foydalanish, uni tarmoqlar kesimida aniq natija beradigan yechimlar bilan bog‘lash muhim ahmiyat kasb etadi.

Shu maqsadda tibbiyot, energetika, transport, bojxona soliq, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga oid 130 dan ziyod ma‘lumotlar bazasini tizimlashtirish, ular bilan ishlab muhitini shakllantirish hamda sun‘iy intellekt modellari joriy qilish rejalarini ko‘rib chiqildi. Bu orqali davlat xizmatlarida foydalanuvchilarga taqdim etiladigan servislarni kengaytirish, davlat boshqaruvi jarayonlarida tahlil va qaror qabul qilish sifatini oshirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarida xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni yuksaltirish ko‘zda tutilmoqda.

► Davomi 2-betda

Leya GUTIERRES:

“O‘ZBEKISTON INVESTORLAR UCHUN TOBORA JOZIBADOR BO‘LIB BORMOQDA”



Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Osiyo taraqqiyot bankining 59-yillik yig‘ilishi arafasida bankning Markaziy va G‘arbiy Osiyo departamenti bosh direktori Leya Gutierrez “Dunyo” AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

— Samarqand OTB Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishiga mezbonlik qilmoqda. Nima uchun O‘zbekiston bankning bunday muhim tadbiriga mezbon mamlakat sifatida tanlanganini tushuntirib bera olasizmi?

— O‘zbekistonni tanlash Boshqaruvchilar kengashining qarori bilan bog‘liq edi. Bu O‘zbekiston hukumatining ushbu tadbirni Samarqandda o‘tkazish taklifiga javob bo‘ldi va bank bilan mustahkam hamkorlikni aks ettiradi.

► Davomi 2-betda

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

QORAQALPOG‘ISTON — YANGILANISH, ULKAN BUNYODKORLIK VA YANGI IMKONIYATLAR DIYORI

Prezidentimiz tashabbusi bilan Orolbo‘yi hududini barqaror rivojlantirish va Orol dengizining qurigan tubida yashil qoplama — himoya o‘rmonlari barpo etish borasida qilinayotgan ishlar xususida



Bugun mamlakatimizda “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu g‘oya asosida o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli Qoraqalpog‘iston ham o‘zining yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ymoqda.

Prezidentimiz Orolbo‘yi hududini barqaror rivojlantirish, u yerda yashayotgan aholining hayot sifati va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalariga doimiy e‘tibor qaratmoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, 2017-yildan hozirga qadar Qoraqalpog‘istonni ravnaq toptirish, o‘boda va farovon hududga aylantirishga qaratilgan 80 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilinganini ta‘kidlash lozim. Mazkur hujjatlar asosida

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston uchun loyihalarni amalga oshirish markazi, Tadbirkorlikka ko‘maklashish direksiyasi, Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jamg‘armasi faoliyat yuritmoqda. Hududda 7 yil muddatga 14 foizli, 2 yillik imtiyozli davr bilan kreditlar berilishi yo‘lga qo‘yildi. Sanoat korxonalar uchun elektr energiyasidan 15 foizli imtiyoz berilishi natijasida 2500 dan ortiq korxonaning har oyda o‘rtacha 4-5 milliard so‘m mablag‘i tejalmogda.

Bunday imkoniyatlar tufayli kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2020-yildagi 62,5 foizdan 2025-yilda 65,5 foizga

Albatta, Qoraqalpog‘istonning chekka tuman va ovullaridagi bunday ulkan bunyodkorlik ishlarini hududning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu o‘rinda yana bir misolni keltirib o‘tmoqchimiz. Nukus shahridan 440 kilometr, Qo‘ng‘itrot tumani markazidan 340 kilometr olisda joylashgan Qoraqalpog‘iston posyolkasi mamlakatimizning shimoliy darvozasi. Ustyurtning qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan bepoyon tekisliklari bag‘rida joylashgan ushbu ovul hayotida Prezidentimizning 2018-yilda bergan topshirig‘idan keyin tub o‘zgarishlar ro‘y berdi.



yaratib berilgan keng imkoniyatlar tufayli barcha sohada yangilanish va jadal o‘sish ro‘y bermogda.

Misol uchun, Qoraqalpog‘istonning yalpi hududiy mahsuloti 2017-yilda 13 trillion 500 milliard so‘m yoki 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan davrda bu ko‘rsatkich 4 barobar o‘sib, joriy yil boshida 54 trillion so‘m yoki 4 milliard 500 million dollardan oshdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi 2017-yildagi 7,5 million so‘mdan 26,5 million so‘mga yetdi.

Qisqa muddatda biznes va investitsiyalar uchun qulay muhit, tadbirkorlarga daromad topishi uchun yangidan yangi imkoniyatlar yaratilgani natijasida hozir ushbu hududda zamonaviy sanoat va kuchli tadbirkorlar qatami shakllandi. Buni o‘tgan davrda korxonalar soni ikki barobar ko‘payib, 26 mingtaga, sanoat mahsulotlari hajmi esa 4,2 barobar o‘sib, 29 trillion so‘mga yetgani misolida ham ko‘rish mumkin. 2017-yilda 6 million dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich qariyb 500 barobar o‘sib, 2025-yilda 2 milliard 500 million dollarni tashkil qilgani diqqatga sazovor. Eksport hajmi esa 2017-yildagiga nisbatan 13,5 barobar oshib, 2025-yilda 435 million dollarga yetdi.

Aholi va tadbirkorlar uchun berilgan alohida imtiyozlar haqida aytganda, tadbirkorlar uchun foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer solig‘i stavkalari 2 karra kamaytirildi. Ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi. Natijada 2023-2025-yillarda 17 mingdan ortiq tadbirkor ixtiyorida 567 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ qoldi.

ko‘tarildi. Sanoatdagi ulushi esa mos ravishda 24,7 foizdan 41,3 foizga, xizmat ko‘rsatishda 52,2 foizdan 74 foizga, eksportda 21,6 foizdan 43,7 foizga yetdi.

Aholining yashash sharoitini yaxshilash va uy-joyga talabini qondirish maqsadida qilinayotgan ishlar tufayli so‘nggi to‘rt yilda Orolbo‘yida 8749 xonadonli 224 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirildi. 1734 fuqaroga 53 milliard 400 million so‘mlik subsidiya ajratilib, boshlang‘ich to‘lovi qoplab berildi. Joriy yilda esa yana 4206 xonadonli 103 ta ko‘p qavatli uy qurilmoqda.

Davlatimiz rahbarining alohida topshirig‘i asosida hukumatning tegishli qarori qabul qilinib, nochor holatdagi qariyb 18 ming 500 ta xonadon yangidan qurildi va ta‘mirlandi. Shu tariqa og‘ir sharoitda yashayotgan 70 mingga yaqin kishining uy-joy sharoiti tubdan yaxshilandi. Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Xo‘jayli tumanidagi Sarishingil, Jana Jap va Kun nuri mahallalarida termitdan zarar ko‘rgan 147 ta uyda yashayotgan odamlar bilan shaxsan uchrashib, muloqot qildi. Shundan keyin bu oilalarni boshqa joyga ko‘chirish uchun byudjetdan 33 milliard so‘m ajratildi.

Taxiatosh tumanida o‘tgan asrning 50-yillarida yog‘ochdan vaqtinchalik yotoqxona sifatida qurilgan 5 ta barak tipidagi uyda yashovchi to‘qsondan ortiq oila ham talabga javob beradigan uylarga ko‘chirildi. Qo‘ng‘itrot tumanining Bo‘ston va Jasliq aholi punktlarida avariya holatidagi ko‘p qavatli turar joylarda yashovchi fuqarolarga yangi qurilgan ko‘p qavatli uy-joylar bepul topshirildi.

Xususan, 25 ta ko‘p qavatli uy, ichki yo‘l va yo‘laklar ta‘mirlandi. Ko‘chalarga yoritqichlar o‘rnatildi. Yosh oilalar, kam ta‘minlangan hamda nogironligi bo‘lgan fuqarolar uchun 24 ta arzon uy-joy, bojxona xizmati xodimlari va chegarachilar uchun xizmat uylari barpo etildi. Hududdagi 41 kilometrli ichimlik suv tarmog‘i yaxshilandi, 16 kilometr ichki yo‘llar, 21 ta transformator, 3 kilometr gaz tarmog‘i va 16 ta gaz taqsimlash nuqtasi, meteostansiya, temir yo‘l vokzalida ta‘mirlash ishlarini bajarildi, 2 ta bekat qurildi.

Sakkizta ijtimoiy obyekt, jumladan, ikkita umumta‘lim maktabi, ikkita maktabgacha ta‘lim tashkiloti, o‘smirlar sport maktabi, kollej, oilaviy poliklinika binosi mukammal ta‘mirlandi. O‘tgan asrning 90-yillaridan buyon qarovsiz qolib ketgan klub zamonaviy madaniyat saroyiga aylantirildi. Mahallada futbol va bolalar maydonchasi barpo etildi. Tikuv sexi ishga tushirilib, 80 xotin-qiz doimiy daromad manbai bilan ta‘mirlandi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu o‘lis chegaralar hududida qilingan ishlar davlatimiz xalqparvar siyosatining yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi.

Hududda yo‘llarni o‘boda qilishga ham jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Qoraqalpog‘istonda keyingi 5 yilda 6579 kilometr uzunlikdagi yo‘llarda qurilish-rekonstruksiya va ta‘mirlash ishlarini bajarildi. Jumladan, 2533 kilometr asfalt va beton yo‘llarda qurilish va ta‘mirlash ishlarini bajarilgan bo‘lsa, 4046 kilometr yo‘lga shag‘al yotqizildi.

► Davomi 3-betda



SUN'IY INTELEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH KENGAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Taqdimotda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning sohaviy yo'nalishlariga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Xususan, sog'liqni saqlashda insult va ko'krak bezi saratonini erta aniqlash, tibbiy ko'rik jarayonlarini avtomatik bayonlashtirish, raqamli tibbiy yordamchi dasturlarni joriy etish; qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini prognoz qilish, fitosanitar xavflar bo'yicha fermerlarning xabardorligini ta'minlash, yaiyovlarning holati monitoringini uyushtirish; transport sohasida yo'l qoplamalari va temir yo'l infratuzilmasi monitoringini o'tkazish, haydovchini xavfli vaziyatlardan ogohlantirish, "aqli" transport tizimlarini rivojlantirish; qurilish va sanoatda esa qonunbuzarliklarni aniqlash, smeta hujjatlarini ko'rib chiqish muddatini qisqartirish, videotahlil orqali ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish kabi loyihalarni kengaytirish nazarda tutilgan.

Infratuzilmani rivojlantirish bilan birga mahalliy startaplarni qo'llab-quvvatlash va aholi, ayniqsa, yoshlarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ham muhokama qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizda startaplarni soni 950 taga yetgan, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,5 foizlik o'sishni anglatadi. Venchur fondlarining soni 22 taga yetib, ekotizim qiymati esa 4,3 milliard dollar deb baholanoqda. Startaplarga kiritilgan investitsiyalar hajmi 132 million dollarni tashkil etgani ta'kidlandi.

Joriy yildan boshlab startaplarni bo'yicha Prezident tanlovining mukofot jamg'armasi AT yo'nalishida 5 million dollarga oshirilgani, sun'iy intellekt yo'nalishida esa 1 million dollarlik yangi tanlovlar joriy etilgani ma'lum qilindi. Shuningdek, "President AI Award"ni davlat boshqaruvi, sanoat va tadbirkorlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, "yashil iqtisodiyot" va agrotexnologiyalar kabi 5 yo'nalishda tashkil etish taklifi bildirildi.

2030-yilgacha axborot texnologiyalari sohasida 300 ming yoshning bandligini ta'minlashga qaratilgan choralar ham ko'rib chiqildi. Buning uchun hududlarda raqamli ekotizimni kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport xizmatlar ko'lamini oshirish va startaplarning o'sish nuqtalarini ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan Samarqand, Namangan, Sirdaryo va Buxoroda IT-Parkning yangi filiallari, Nurafshon shahrida esa raqamli R&D markazini tashkil etish bo'yicha rejalar haqida axborot berildi. Nurafshon shahrida 7,3 gektar maydonida tashkil etiladigan mazkur markaz doirasida 6 ta yuqori texnologiyali laboratoriya, sun'iy intellekt uchun 200 ta GPUli hisoblash markazi, startap kampusi va tijoratlashtirish markazini barpo etish ko'zda tutilgan. Loyihaning umumiy qiymati 200 million dollarni tashkil etib, uni 2027-2031-yillarda amalga oshirish rejalashtirilgan.

Taqdimotda raqamli ta'limni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

"5 million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi doirasida 1 milliondan ortiq boshlang'ich kurs tinglovchilari, 300 mingdan ziyod o'rta bosqich tinglovchilari va 1,5 ming professional darajadagi mutaxassis tayyorlangani aytiladi. Endi maktablarda sun'iy intellekt va startap xonalarini tashkil etish taklif qilindi.

Shu bilan birga, maktablarda raqamli infratuzilma holati tahlil qilindi. Hozirda 69 foiz maktablarda Wi-Fi zonasi umuman mavjud emasligi, 5 mingga kompyuter sinfi ma'nan eskirgan, 2 mingga maktabda esa bunday xonalar yo'qligi qayd etildi. Shu bois, 2030-yilgacha 16 mingga kompyuter sinfxonalarini yangilash, maktablarni bepul Wi-Fi nuqtalari bilan ta'minlash va internet tezligini oshirish bo'yicha aniq choralar ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda mahalliy AT yechimlaridan foydalanishni kengaytirishga ham alohida urg'u berildi. Davlat ishtirokidagi korxonalar va banklardagi dasturiy mahsulot va axborot texnologiyalari xizmatlarining kamida 45 foizini mahalliy lashtirish imkoniyati mavjudligi qayd etildi. Shu munosabat bilan davlat korxonalarini va banklar tomonidan AT xizmatlarni import qilinishida majburiy tartibda Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi bilan kelishish tizimini joriy qilish, buyurtmalarni IT-Park rezidentlariga yo'naltirish taklif etildi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasi va tartibga solish sohasidagi ishlarga ham to'xtalib o'tildi.

Keyingi yillarda aholi maskanlarining telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrovi 41 foizdan 98 foizga yetgan, umumiy internet o'tkazish qobiliyati esa 65 barobar oshib, 4,4 ming gigabit/sekundga chiqqan. Teleradiokommunikatsiya bozorini tartibga solish, xizmatlar sifatini monitoring qilish va foydalanuvchilarni huquqlarini himoya qilish maqsadida alohida agentlik tashkil qilinishi qayd etildi.

Taqdimotda telekommunikatsiya bozorini har yili kamida 10 foizga oshirib, joriy yilda 27,5 trillion so'mga yetkazish rejalar ko'rib chiqildi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash, davlat axborot tizimlarini integratsiya qilish va raqamli hukumat platformasini mustahkamlash masalalari ham muhokama etildi. Davlat axborot tizimlarini faqat yagona raqamli hukumat platformasi orqali integratsiya qilish, kibernetik xavfsizlik ekspertizasidan o'tmagan tizimlarni raqamli hukumatga ulashni cheklash, shuningdek, axborot xavfsizligini kuchaytirish maqsadida har ikki yilda bir marta to'liq AT-audit o'tkazish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari sun'iy intellekt va raqamlashtirish bugungi kunda faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiyot samaradorligi, davlat boshqaruvi sifati, xizmatlar qulayligi, eksport salohiyati va mamlakat raqobatbardoshligini belgilaydigan strategik yo'nalish ekanini ta'kidladi. Sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA

Leya GUTIERRES: "O'ZBEKISTON INVESTORLAR UCHUN TOBORA JOZIBADOR BO'LIB BORMOQDA"



Boshlanishi 1-betda

Eng muhimi, mamlakat hukumati har yili yig'ilishni O'zbekistonda o'tkazishga yuqori darajadagi siyosiy sidiqlikni ko'rsatdi.

— O'zbekiston OTBning Markaziy Osiyodagi eng yirik hamkorlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ikki tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat? Shuningdek, O'zbekistonning investitsiyalar uchun jozibadorligiga xizmat qiluvchi omillar haqida gapirib bersangiz.

— O'zbekiston OTBning Markaziy Osiyodagi eng yirik va strategik ahamiyatga ega hamkorlaridan va bu hamkorlik barqaror hamda inklyuziv rivojlanishga umumiy sidiqlikka asoslanadi. OTB va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik 2024-2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik strategiyasida mustahkamlangan.

Asosiy ustuvor yo'nalishlarga inson kapitalini jalb etish, iqlim o'zgarishlariga chidamlilikni oshirish, davlat xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish kiradi. O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligiga kelsak, u qator kuchli fundamental omillarga tayanadi.

Mamlakatning katta qismi yoshlardan iborat, ularning ko'pi 30 yoshdan kichik. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan bo'lib, energetika, transport va sanoat kabi sohalarda salmoqli salohiyatga ega.

So'nggi yillardagi keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar muhitini yaxshilash, iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlash investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qildi. Aynan shu jihat O'zbekistonning investitsiyalar uchun alohida jozibadorligini ta'minlaydi.

— O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi muhim transport-logistika tugini. OTB yaqin yillarda qaysi mintaqaviy infratuzilma loyihalarni eng istiqbolli deb hisoblaydi?

— Biz uchun O'zbekiston Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz va g'arbiy yo'nalishlar

bilan bog'laydigan transport-logistika markazi sifatida muhim o'rin tutadi. Mintaqaviy bog'liqlik OTBning mamlakatdagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan.

Eng istiqbolli mintaqaviy infratuzilma tashabbuslari haqida gapirsa, bular, avvalo, Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi — CAREC doirasidagi loyihalardir. CAREC doirasida savdoni kengaytirish, sayohat vaqtini qisqartirish va transchegaraviy aloqalarning barqarorligini oshirishga yordam beradigan transport yo'laklarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunday loyihalardan biri CAREC-2 avtomobil yo'lagini rivojlantirishdir. Xususan, O'zbekiston g'arbidagi Buxoro va Nukus o'rtasidagi A-380 avtomobil yo'lining muhim qismini rekonstruksiya qilishni nazarda tutuvchi barqarorlikni oshirish va modernizatsiya qilish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Mazkur hudud strategik ahamiyatga ega. Chunki CAREC-2 yo'lagi O'zbekistonni Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston va undan keyin Janubiy Osiyo, Kaspiy mintaqasi, jumladan, O'rta yo'lak deb nomlanuvchi Transkaspiy yo'nalishi bilan bog'laydi.

Ushbu loyiha yo'lni oddiy rekonstruksiya qilish doirasidan tashqari. U iqlimga chidamli muhandislik yechimlari, "aqli" transport tizimlari, harakat va o'q yuklamasini boshqarib tashlovchi mexanizmlarini joriy etishni qamrab oladi. Bularning barchasi o'sib borayotgan savdo oqimi va iqlim muammolari sharoitida yo'lakning ishonchligi va samaradorligini ta'minlaydi.

— Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishi oqibatlariga eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan mintaqalar qatoriga kiradi. OTB O'zbekistonda qanday iqlim loyihalarini amalga oshirish yoki kengaytirishni rejalashtirmoqda?

— Darhaqiqat, Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishi oqibatlariga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi mintaqalardan. Gap haroratning ko'tarilishi, suv resurslari taqchilligi kuchayishi va ekstremal ob-havo hodisalar ko'payishi haqida bormoqda. Shu munosabat bilan iqlim muammolarini hal qilish OTBning O'zbekistondagi faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Iqlim o'zgarishini qo'llab-quvvatlashda ta'sirlarni yumshatish va moslashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yumshatish choralar doirasida OTB qayta tiklanadigan energiya, jumladan, quyosh va shamol energiyasi loyihalariga sarmoya kiritishni kengaytirmoqda. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirishga ko'maklashilmoqda. Bu chora-tadbirlar bir vaqtning o'zida mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Quyosh va shamol energetikasi bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish bilan birga elektr tarmoqlari samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan to'liq foydalanish uchun ishonchli va barqaror energiya tizimi zarur bo'lib, bu borada ham ishlar faol bajarilmoqda.

Iqlim o'zgarishlariga moslashish ham ahamiyatga ega. Suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi va shaharlarni rivojlantirish sohalarda barqarorlikni oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tashqinlaridan himoyani kuchaytirish, transport va kommunal infratuzilmaga iqlimga chidamli yechimlarni joriy etish shular jumlasidan.

Bundan tashqari, OTB O'zbekiston hukumati bilan iqlimga ta'minlangan rejalashtirish va institutsional rivojlanishni takomillashtirish bo'yicha hamkorlik qilmoqda.

— OTB an'anaviy ravishda inson kapitalini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlab keladi. O'zbekistonda yaqin yillarda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida qanday loyihalarni amalga oshirish mumkin?

— O'zbekistonda aholining yarmidan ko'pi 30 yoshgacha. Bu inklyuziv va uzoq muddatli o'sishni ta'minlash uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga sarmoya kiritishni talab qiladi. Bunday demografik tuzilma "demografik dividend" deb ataladi va mamlakat kelajagi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ta'lim sohasida OTB o'qitish sifati oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini bozor va zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu texnik va kasb-hunar ta'limini qo'llab-quvvatlash, raqamli ta'limni rivojlantirish, ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashni qamrab oladi.

STEAM ta'limi — fan, texnologiya, muhandislik va matematikani rivojlantirish alohida yo'nalishga aylanoqda. Ta'lim muhitini yaxshilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va STEAM yo'nalishlaridan foydalanish imkonini kengaytirish, ayniqsa, yoshlar, shuningdek, xotin-qizlar uchun tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu kelajak chaqiriqlariga tayyor kadrlarni shakllantirishga zamin yaratadi hamda innovatsiyalar, unumdorlik va raqobatbardoshlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash inson kapitalini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Hozir OTB birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini mustahkamlash va sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni qo'llab-quvvatlammoqda. Ustuvor yo'nalishlar orasida sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli yechimlarni joriy etish hamda tizimning jamoat salomatligi va iqlim o'zgarishi xavflariga chidamlilikni oshirish bor.

— Bergan ma'lumotlaringiz uchun katta rahmat. — Sizga ham tashakkur. Mazmunli suhbat bo'ldi.

"Dunyo" AA



KENG KO'LAMLI HAMKORLIK YO'LDAGI MUHIM QADAM

CHEXIYA MATBUOTI IKKI DAVLAT RAHBARLARINING OLIV DARAJADAGI MUZOKARALARI HAQIDA



Chexiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalari sahifalarida Chexiya Bosh vaziri Andrey Babishning Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'ylab safarining yakuniy bosqichi bo'lgan O'zbekistonga rasmiy tashrifi keng yoritilmoqda.

Chexiya matbuotining ta'kidlashicha, tashrif aniq iqtisodiy xususiyatga ega bo'lib, Chexiyaning mintaqadagi mavqei mustahkamlashga qaratilgan.

"IDNES.cz" internet resursining yozishicha, tashrifning asosiy voqeasi Toshkentda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan muzokaralar bo'lib, unda ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari muhokama qilindi. Uchrashuvlar yakunida tomonlarning savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga intilishini tasdiqlovchi qator bitimlar imzolandi.

Chexiya ommaviy axborot vositalari tashrifning ishblarmonlik jihatiga alohida e'tibor qaratmoqda. "České noviny" xabariga ko'ra, Toshkentda ikki davlat bosh vazirlari Andrey Babish va

Abdulla Aripov ishtirokida biznes-forum bo'lib o'tdi. Muhokamalar markazida mashinasozlik, transport va turizm kabi yo'nalishlar bo'lib, ular kelgusidagi hamkorlikning drayverlari sifatida ko'rib chiqilmoqda. Ta'kidlanishicha, Chexiya tomoni mintaqaga investitsiya va savdo ishtirokini kengaytirishga qaratilgan nufuzli biznes delegatsiyasi hamrohligida kelgan.

Nashrlarning alohida bloki yirik sanoat shartnomalariga bag'ishlangan. Xususan, "IROZHLAS.cz" va "Česke-novinky.cz" onlayn nashrlari "Skoda Group" ishtirokida zamonaviy elektropoyezdlarni yetkazib berish va ularga uzoq muddatli xizmat ko'rsatish tizimini yaratishni nazarda tutuvchi kelishuvga e'tibor qaratmoqda. Qiymati bir necha milliard kron bo'lgan

loyiha O'zbekiston temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiyalashga qo'shilgan hissa va bir vaqtning o'zida Chexiya kompaniyalarining Markaziy Osiyodagi yangi bozorlarga chiqish imkoniyati o'laroq baholanoqda.

"Forum24.cz" portali ham ikki tomonlama munosabatlarning iqtisodiy dinamikasini qayd etib, so'nggi yillarda Chexiyaning O'zbekistonga eksporti hajmi deyarli uch baravar oshganini ta'kidladi. Shu nuqtayi nazardan, Andrey Babishning tashrifi Chexiya mahsulotlari va texnologiyalarini, birinchi navbatda, mashinasozlik, transport yechimlari va sog'liqni saqlash sohalarida yanada ilgari surish vositasi sifatida ko'rilmogda.

"EuropeSays" nashri tashrifi Chexiyaning Markaziy Osiyoda iqtisodiy ishtirokini mustahkamlash bo'yicha uzoq muddatli siyosatining bir qismi sifatida baholab, kengroq kontekstga e'tibor qaratgan. Nashrda Praganing nafaqat eksport va investitsiyalarni oshirish, balki Chexiya biznesining mintaqaning istiqbolli bozorlaridagi mavqei mustahkamlash istagi ta'kidlangan.

Chexiya ommaviy axborot vositalari nashrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Chexiya Bosh vazirining O'zbekistonga tashrifi amaliy natijalarga, sanoat kooperatsiyasiga va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratgan holda ikki tomonlama sheriklikni rivojlantirishda muhim qadam sifatida qabul qilinmoqda.

"Dunyo" AA
Praga

Munosabat



So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, pragmatizm va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, ilg'or texnologiyalar, investitsiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb etishga qaratilgan siyosat mamlakatimiz taraqqiyotida muhim omilga aylanoqda. Bu jarayonda davlatlararo munosabatlarni faqat diplomatik muloqot doirasida emas, balki iqtisodiy, texnologik va gumanitar sohalarda ham chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'ZARO ALOQALAR INSTITUTSIONAL JIHATDAN MUSTAHKAMLANMOQDA

Shu ma'noda, Chexiya bilan munosabatlarda alohida ahamiyatga ega. Zero, Chexiya Yevropa Ittifoqining sanoati rivojlangan davlatlaridan biri, mashinasozlik, energetika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalar va muhandislik sohalarida katta salohiyat mavjud. Ushbu davlatning texnologik imkoniyatlari, eksporti yo'naltirilgan iqtisodiyoti va innovatsion yechimlari O'zbekiston uchun muhim hamkorlik manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, Chexiyaning Yevropa bozorlariga chiqishdagi o'rni mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.



Global iqtisodiy sharoitda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va eksport geografiasini kengaytirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib borayotgan bugungi kunda Chexiya bilan hamkorlik ana shu maqsadlarga erishishda muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqqan muhim voqea



Komila KAROMOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi

bo'ldi. Ko'ksaroy qarorgohida oliy darajada o'tgan muzokaralar davomida siyosiy muloqot bilan bir qatorda iqtisodiy va texnologik hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan aniq yo'nalishlar belgilab olindi.

Muzokaralar chog'ida ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib, tovar ayirboshlash hajmi qariyb ikki barobar oshgan. Bugungi kunda mamlakatimizda Chexiya kapitali ishtirokida o'nlab ko'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Endi ushbu hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, o'zaro savdo hajmini 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Ayniqsa, mashinasozlik, "yashil" energetika, geologiya, kimyo va farmatsevtika kabi sohalarda texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlar iqtisodiyotimizni diversifikatsiyalash va sanoatni modernizatsiyalashda muhim



ahamiyatga ega. Shu bilan birga, "aqli" shaharlarni raqamlashtirish va muhandislik sohalaridagi hamkorlik istiqbollari zamonaviy taraqqiyot tendensiyalariga to'liq mos keladi.

Tashrif doirasida imzolangan Kengaytirilgan hamkorlikni ilgari surish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya hamda iqtisodiy, ilmiy-texnologik va infratuzilmaviy sohalarini qamrab olgan qator bitimlar ikki davlat munosabatlari institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muzokaralar davomida madaniy-gumanitar yo'nalishda hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan diqqatga sazovor. Ta'lim sohasida qo'shma dasturlar, akademik almashinuvlar, madaniyat va kino kunlari, turizmi rivojlantirish bo'yicha kelishuvlar xalqlarimiz o'rtasidagi ikki davlat o'zaro ishonch va yaqinlikni yanada mustahkamlaydi. Bu esa davlatlararo munosabatlarning eng barqaror va uzoq muddatli asosini shakllantiradi.

Chexiya Bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi nafaqat ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi, balki uni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratdi. Eng muhimi, ushbu hamkorlik innovatsiya, texnologiya va yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan yangi iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va ishonchli sheriklik tamoyillari xalqaro maydonda o'z samarasini bermogda. Chexiya bilan munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishi esa bu siyosatning amaliy natijasidir. Mazkur hamkorlik kelgusida nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ilm-fan, ta'lim va innovatsion taraqqiyot uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

QORAQALPOG'ISTON — YANGILANISH, ULKAN BUNYODKORLIK VA YANGI IMKONIYATLAR DIYORI

Prezidentimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi hududini barqaror rivojlantirish va Orol dengizining qurigan tubida yashil qoplama — himoya o'rmonlari barpo etish borasida qilinayotgan ishlar xususida



Tursinxan XUDAYBERGENOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining Orolbo'yi
mintaqasini barqaror
rivojlantirish masalalari bo'yicha
maslahatchisi

Boshlanishi 1-betda

“Qo'ng'iroq — Beynov” avtomobil yo'lining 240 kilometr qismiga sement-beton qoplama yo'qotilgan nafaqat Orolbo'yi hududi, balki mamlakatimiz hayotidagi ulkan voqealardan biri bo'ldi. Amudaryo ustida temir yo'l va avtomobil yo'lidan iborat yirik qo'shma ko'priq qurilib, foydalanishga topshirilishi bilan qoraqalpog'istonlik va xorazmlarning asriy orzusi ushaldi.

Keyingi 9-10 yilda ijtimoiy sohada ham keng ko'lami ishlohtlar amalga oshirildi. Xususan, davlat qaromog'idagi 264 ta bolalar bog'chasida qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilib, qamrov 2016-yildagi 25 foizdan 84 foizga

Prezidentimiz faoliyatining ilk davrlaridan Orol dengizi qurishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Davlatimiz rahbari 2018-yil noyabrda Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomida olim va mutaxassislar bilan uchrashib, qurigan dengizning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha atroficha fikr almashgan edi. Pirovardida dengiz o'mida yashil qoplama — himoya o'rmonlari barpo etish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar bergandi.

O'sha yilning dekabrda e'tiboran yurtimiz bo'yab yangi harakat boshlandi. Mamlakatimizning barcha hududi vakillari, Favqulodda vaziyatlar va Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimi xodimlari, o'rmonchilar ayni qish chillasida, 25-30 darajali sovuqqa qaramay, amaliy ishlarga kirishdi.

Birinci mavsumning o'zida 1 million 125 ming gektar maydonda qumni ushlab qolish va namlikni saqlab turish uchun yer tayyorlash ishlari bajarildi. 461 ming gektar yerda saho sharoitiga mos saksovol, cheker, qandim, qorabaroq kabi o'simliklar ekildi.

Shu o'rinda taqqoslash uchun bitta misol keltiramiz. 1984-2018-yillarda, ya'ni 34 yil davomida Orolbo'yi hududidagi 350 ming gektar maydonda o'rmon barpo etilgan bo'lsa, 3-4 oyda yoq ushbu maydondan 111 ming gektar ko'p yashil qoplama tashkil qilindi. Bu tom ma'nodagi tarixiy voqea, Orolbo'yida yangi davrimiz boshlanishi edi. Prezidentimiz rahbarligida kelajak avlodlarga toza havo, musaffo osmon, go'zal tabiat, obod va farovon Vatan qoldirish maqsadidagi ulug' ishlarning deboshasi edi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga binoan o'shandan buyon har yili Orol dengizining qurigan tubida qish va bahor oylarida yashil qoplama barpo etish bo'yicha hukumatimizning alohida



birga yoshlar, nuroniylar, ziyolilar, san'atkorlar, deputatlar, bir so'z bilan aytganda, butun xalqimiz faol ishtirok etmoqda. Qurigan dengiz tubi ko'p millatli xalqimizning mardlik va matonat, hamjihatlik va mehr-oqibat maktabiga aylandi.

Kuzatuv va hisob-kitoblarga ko'ra, 2018-2025-yillarda ekilgan o'simliklarning o'rtacha ko'karuvchanligi 55-60 foizni tashkil etmoqda. 2019-2020-yillarda barpo etilgan o'rmonlarda saksovolning bo'yi o'rtacha 2-3 metrga yetgan. Hozir o'simliklarning urug'

ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Misol uchun, 2020 va 2024-yillarda qozog'istonlik olim va mutaxassislardan iborat ilmiy guruh o'zaro tajriba almashish uchun ushbu hududda bo'ldi. Ko'kalimzorlashtirish bo'yicha loyiha natijalari ularni hayratga soldi. Samolyot yordamida sepilgan urug'larning yuqori unuvchanligi ular uchun muhim yangilik bo'lgani alohida qayd etdi.

Qozog'iston delegatsiyasi yurtimizda to'plangan tajribani yaqindan o'rganib, cho'llanish muammosini hal qilishda yangi bilim va imkoniyatlarga ega bo'ldi. Kelgusida ular o'z mamlakatining janubiy qismidagi cho'l hududlarda qumning harakatlanishiga to'sinlik qiladigan “yashil kamar”ni yaratish bo'yicha qo'shma loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

O'tgan yili Orolbo'yida O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligining ilmiy-tadqiqot stansiyasi ish boshladi. U yerda olim va mutaxassislar sho'rlangan tuproq unumdorligini tiklash, sho'rga chidamli o'simliklar rivojlanishi va changlanishini kuzatish, tuproq, qum ko'chishi, suv va iqlim o'zgarishlari kabi jarayonlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Mutaxassislarning aytishicha, stansiya Orolbo'yi hududida ekotizimni tiklashga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni sinovdan o'tkazish, olingan natijalarni tizimli tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Bu esa mintaqaning uzoq muddatli ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy platforma bo'lib xizmat qiladi.

2026-yilda 215 ming gektar maydonda yashil qoplama barpo etish belgilangan bo'lsa, undan ko'proq — 231 ming 530 gektar maydonga 690 tonna saksovol va boshqa o'simliklar ekildi. Ushbu tadbirlarga o'rmon xo'jaligining 622 ishchisi, 730 ta maxsus texnika va agregat, 2 ta samolyot jalb etildi.

Xullas, hozir Orol dengizi ochiq osmon ostidagi ilmiy laboratoriyaga, yangi ilmiy-amaliy g'oya va ishlanmalar yaratiladigan innovatsion hududga aylanib bormoqda.

Ahamiyatli, bu yerda bo'y cho'zayotgan yangi o'rmonlar bag'rida xalqaro ilmiy anjumanlar, do'stlik va sayyohlik festivallari, yoshlar ishtirokida turli-tuman tadbirlar, uch avlod uchrashuvlarini o'tkazish an'ana tusiga kirmoqda.

Yaqinda Qozog'istonning Ostona shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz 2027-2029-yillarda

“Hozirgacha 2 million 97 ming gektar maydonda cho'l o'rmoni paydo bo'ldi. Buning uchun 8500 tonnaga yaqin cho'l o'simliklari urug'i ekildi. Natijada hududda ilgari tez-tez kuzatiladigan qum-chang bo'roni keskin kamaydi, havo tarkibidagi mayda qum zarralari miqdori esa 70-75 foiz pasaygan.”

yetkazildi va Qoraqalpog'iston bu borada eng ilg'or hududlardan biriga aylandi.

Shuningdek, 224 ta maktab qurilgan va mukammal ta'mirlangan hisobiga minglab yangi o'quvchi o'rni ochildi, uch smenal o'qish to'liq tugatildi.

Ishlohtlar boshlanganidan buyon hududdagi oliygohlar soni 6 tadan 11 taga yetkazildi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichi 2016-yildagi 9 foizdan 55 foizga ko'tarildi. Bularning barchasida qoraqalpog'istonlik yoshlar uchun ajratilayotgan qo'shimcha kvotalar muhim asos bo'lmoqda. Hududda ishlab chiqarish ko'lami kengayishi natijasida kadrlarga talab oshdi. Shu tufayli Prezidentimizning farmoniga asosan 2022-2023-o'quv yilidan boshlab hozirga qadar qoraqalpog'istonlik yoshlar uchun qo'shimcha 30 ming 700 o'rin ajratib berildi.

Orolbo'yida 2023-2025-yillarda 253 milliard 395 million so'm hisobidan 67 ta sog'liqni saqlash obyekti qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Tibbiyot rivojiga qaratilayotgan e'tibor natijasida aholi o'rtasida kasalliklarni erta aniqlash va o'lim darajasini bir necha marta kamaytirishga erishildi. Nafas olish tizimi kasalliklari kamayishi kuzatilmoqda. Jumladan, birlamchi kasallanish 2022-yilda har 100 ming aholiga nisbatan 42 ming 449 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib bu ko'rsatkich 33 ming 294 nafarga tushdi. Nafas olish tizimi bo'yicha umumiy kasallanish esa 100 ming aholiga 14 ming 798 nafarni tashkil etgan bo'lsa, hozir 10 ming 50 nafarga tushdi. E'tiborlisi, bunday ijobiy o'zgarish mutasilsaqlanib turibdi.

Davlatimiz rahbarining “Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi” degan, ezgu tashabbusi asosida tumanda ro'y berayotgan o'zgarishlar kishini quvontiradi. Ilgari umidsiz va istiqbolisiz bir hudud sifatida qaralgan Mo'ynoq bugun yangi imkoniyatlar va taraqqiyot hududiga aylandi. Qisqa muddatda tumanning me'moriy qiyofasi yangilandi, infratuzilma sezilarli darajada yaxshilandi, ko'plab ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etildi.

Bo'zovat qayta tashkil etilgan paytda tuman markazi tashlandiq holga kelib qolgandi. Bu yerdagi bunyodkorlik ishlari natijasida bugun hudud Orolbo'yidagi eng so'lim va obod maskanlardan biriga aylandi.



qarori qabul qilinmoqda. Ushbu hujjatlarida bajariladigan barcha ishlarning ko'lami va moliyaviy manbasi aniq belgilab berilayotgani muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'tgan yillarda Orolga yangi hayot baxsh etishga qaratilgan ishlar umumxalq harakatiga aylandi. Bunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, qishloq xo'jaligi xodimlari va o'rmonchilar bilan

tugib, yon-atrofga sochilish — tabiiy tiklanish jarayoni kuzatilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi Qoraqalpog'istonga har bir tashrifida Orol dengizida qilinayotgan ishlar bilan tanishishga alohida vaqt ajratadi. Dengiz tubidagi ishlar davlatimiz rahbarining doimiy e'tibori va nazaratida. Qanday uchrashuv, muloqot



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Bugun dunyo iqtisodiy jarayonlar keskin tezlashgan, o'zaro bog'liqlik misli ko'rilmagan darajada kuchaygan yangi bosqichga qadam qo'ydi. Kapital oqimi bir hududdan boshqasiga tobora tez ko'chmoqda, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish modellari tubdan yangilanmoqda. Raqobat endi nafaqat mahsulot sifati, balki iqtisodiy tizimlarning moslashuvchanligi orqali ham belgilanyapti. Shu jarayonlar ta'sirida global iqtisodiyot o'sish va barqarorlik o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlashga intilmoqda.

SIFATLI



Tahlil

BARQAROR O'SISH DAN TRANSFORMATSIYAGA

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorliklar ushbu muvozanat qanchalik murakkab ekanini yaqqol namoyon etadi. Ayrim hududlarda inflyatsiya bosimi kuchayib borayotgan bo'lsa, boshqa joylarda energiya resurslari hamda logistika zanjirlaridagi uzilishlar iqtisodiy jarayonlarning izchil rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu holat har bir davlat oldida ikki muhim vazifani qo'yadi: bir tomondan o'sish sur'atini oshirish, ikkinchi tomondan iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Iqtisodiy siyosat mazmuni ham tobora yangicha tus olmoqda. Ilgari asosiy e'tibor ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, bugun iqtisodiy qarorlar uzoq muddatli barqarorlik, tizimli muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilayapti. Zero, zamonaviy iqtisodiyotda o'sishning o'ziga yetarli mezon sifatida qaralmaydi — uning sifati va davomiyligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Aynan shunday murakkab global sharoitda O'zbekiston ham o'z taraqqiyot modelini izchil shakllantirib bormoqda. Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar tizimli yondashuvga tayanib, iqtisodiyotni alohida sohalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit mexanizm sifatida rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Shu yil 24-aprel kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi mamlakat iqtisodiyotidagi hozirgi holat va ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab berdi. Unda joriy yil birinchi choragi yakunlari har tomondan tahlil qilindi. Hududlar va tarmoqlar kesimidagi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi, yil yakunigacha qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotining birinchi chorakda 8,7 foiz o'sgan. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiy faollik sezilarli darajada oshganini anglatadi. Biroq bu raqamni faqat statistika sifatida emas, balki kundalik hayot bilan bog'lab tushunish muhim.

Bu o'sish, avvalo, bozordagi harakatda seziladi. Tadbirkorning savdosi yaxshilanasa, demak, aholining xarid qobiliyati ortayapti. Ishlab chiqarishdagi jonlanish esa korxonalarida faollik kuchayganini va mahsulot hajmi ko'payganini ko'rsatadi. Bu holat minglab insonlarning doimiy ish bilan ta'minlanishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasidagi 8 foizli o'sish iqtisodiyotning asosiy "harakat dvigateli" hisoblangan ishlab chiqarish kengayganini anglatadi. Bu faqat zavod va korxonalar faoliyati bilan birga ishchilarning barqaror daromad, oilalarning iqtisodiy holati yaxshilanishi degani hamdir.

Xizmatlar sohasida kuzatilgan 16,1 foizli o'sish esa iqtisodiyotda yangi yo'nalishlar tez rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bugunkisi xizmat, kuraylik, axborot texnologiyalari yoki onlayn savdo bilan shug'ullanuvchilar ham iqtisodiy faol ishtirokchilarga aylangan. Bu, ayniqsa, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar kengayganidan dalolat. Ilgari ish topa olmagan yoshning hozir daromad topishi yoki kichik do'kon ochgan tadbirkorning mijozlari ko'payishi — bularning barchasi iqtisodiyotdagi o'sishning amaliy natijasidir. Bu kabi o'zgarishlar raqamlarda to'liq aks etmasligi mumkin, lekin aynan shu holatlar iqtisodiyotning harakatini belgilaydi.

Inflyatsiya va muhit

Mutaxassislar ta'kidlashicha, iqtisodiy o'sishning barqarorligi ko'p jihatdan narxlar darajasi qanday o'zgarayotgani, ya'ni inflyatsiya holati bilan chambarchas bog'liq. Inflyatsiyani faqat narxlar ko'tarilishi sifatida emas, balki bozordagi umumiy ishonch, kutilmalar va iste'mol xulqini shakllantiradigan omil deb ham tushunish mumkin.



Joriy davrda inflyatsiyaning 7,1 foizgacha pasayishi iqtisodiyotda vaziyat nisbatan barqarorlashayotganini ko'rsatadi. Inflyatsiya ta'siri har bir insonning kundalik hayotida seziladi. Daromad va narxlar o'rtasida muvozanat buzilsa, odam

o'z mehnatining qiymati pasaygandek his qiladi. Aksincha, narxlar barqaror bo'lsa, mehnat natijasi real hayotda aks etadi va inson o'z daromadini aniq sezadi. Bu holat jamiyatda mehnatga ishonchni mustahkamlaydi.

Biznes nuqtayi nazaridan qaraganda, barqaror narxlar uzoq muddatli qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Narxlar tez o'zgarib turgan muhitda tadbirkorlar ko'proq ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi, sarmoya kiritishni kechiktiradi. Barqaror muhitda esa yangi loyihalar yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirish va ish o'rinlari ochish mumkin.

Oddiy misollarda ham bu yaqqol ko'rinadi. Agar bozorda narxlar tez-tez o'zgarib tursa, odamlar hatto kundalik ehtiyoj xaridlarini ham rejasiz amalga oshiradi. Lekin narxlar nisbatan barqaror bo'lsa, oila byudjeti aniqroq rejalashtiriladi, xarid madaniyati ham muvozanatga tushadi. Bu esa butun iqtisodiy jarayonga ta'sir qiladigan kichik, lekin muhim omil.

Tahlilchilar fikricha, inflyatsiyaning pasayishi faqat iqtisodiy ko'rsatkich emas, jamiyat kayfiyatiga ta'sir etuvchi omil hamdir. Chunki ishonch muhiti kuchayganda odamlar faolroq harakat qiladi: yangi ish boshlaydi, sarmoya kiritadi, o'qish va rivojlanishga intiladi. Bu esa iqtisodiyotning tabiiy ravishda jonlanishiga olib keladi.

Shu ma'noda, inflyatsiya va iqtisodiy muhit o'rtasidagi bog'liqlikni faqat raqamlar emas, hayotdagi o'zgarishlar orqali tushunish to'g'riroq. Chunki iqtisodiy siyosatning haqiqiy samarasi statistikada emas, odamlarning kundalik qarorlarida va ularning kelajakka ishonchida ko'rinadi.

Inflyatsiya barqaror joyda iqtisodiyot ham "nafas oladi". Bozorda xotirjamlik, oilada rejalashtirish imkoniyati va biznesda aniqlik paydo bo'ladi. Shu uchun omil uzoq muddatli iqtisodiy o'sish raqamlaridagina emas, balki hayotning o'zida ham sezilarli bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar va global ishonch

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi tashqi kapital oqimi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki xorijiy investitsiyaga faqat pul kirimi emas, balki butun iqtisodiy tizimga nisbatan tashqi dunyo bergan baho sifatida ham qaraladi. Ya'ni investorlar qarorlari ortida raqamlardan ko'ra ko'proq ishonch va barqarorlik turadi.

Joriy davrda 13,7 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiya kirib kelgani O'zbekiston bozoriga tashqi qiziqish sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Mutaxassislar fikricha, bu raqam faqat moliyaviy oqim emas, balki islohotlar samarasiga berilgan ishonch belgisi. Chunki yirik investorlar qaror qabul qilishdan oldin uzoq muddatli tahlil, xavflarni baholash va siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni o'rganadi.

Kuzatuvlar har bir investitsiya ortida global bozorning mamlakatga munosabati mujassamligini ko'rsatadi. Agar iqtisodiy muhit taxmin qilinadigan bo'lsa, huquqiy tizim aniq ishlaya va islohotlar izchil davom etsa, tashqi kapital kirib kelishga moyil bo'ladi.

Hayotda bu jarayonni oddiygina tushuntirish mumkin. Agar bir inson pulni xavfsiz va barqaror joyga qo'ysa, u daromadini emas, avvalo, ishonchni tanlaydi. Xalqaro investorlar ham aynan shu tamoyil asosida harakat qiladi. Ular uchun muhimi "qaysi mamlakatda sarmoya xavfsiz va barqaror o'sish beradi?" degan savol.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining tashqi dunyo bilan aloqalarini aks ettiradigan muhim ko'rsatkichdir. Investitsiya muhiti chanchalik ochiq va shaffof bo'lsa, tashqi kapital shunchalik oson kirib keladi. Bu yangi korxonalar ochilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengayishi va texnologik yangilanishlarga yo'l ochadi.

Investitsiya oqimi iqtisodiyotda zanjirli ta'sirni yuzaga keltiradi. Ya'ni bir yirik loyiha ishga tushsa, u bilan bog'liq kichik bizneslar, xizmat ko'rsatish sohasi va logistika ham rivojlanadi. Natijada ish o'rinlari ko'payadi, aholi daromadi ortadi va ichki bozor faollashadi.



Joriy davrda 13,7 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiya kirib kelgani O'zbekiston bozoriga tashqi qiziqish sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Mutaxassislar fikricha, bu raqam faqat moliyaviy oqim emas, balki islohotlar samarasiga berilgan ishonch belgisi.



Qishloqda bir kun

ULARGA BEKORCHILIK BEGONA

Qashqadaryoda bir vaqtda to'rt faslni kuzatish imkoniyati bor deyishadi. Bu qanchalik haqiqatga yaqinligini vohaning so'lim tabiati, osmono'par tog'lari-yu bepoyon cho'llarini kezman kishilar yaxshi biladi. Birgina Shahrisabz tumanidagi Hisor tog'lariga ko'zi tushgan odam buni anglashi tabiiy. Jumladan, osmono'par qoyalar doim qor bilan qoplangan bo'lsa, uning etagidagi qishloqlar tabiatida yashillik hukm surayotgan bo'ladi.

Odamlari mehnatkash va samimiy. Ular ko'p gapirishdan ko'ra ishlashni ma'qul ko'radi. Biror kishiga savol berib qolsangiz ham javobi qisqa bo'ladi. Odamlar har bir kuni rejali o'tkazishga ko'nikkan. Ana shunday hududlardan biri Shahrisabz tumanidagi tog' etagida joylashgan Qoratu qishlog'i. Bu yer tabiati go'zal bo'lish bilan birga aholi turmushida mehnat tufayli o'zgarish va yangilanishga intilish ham ko'zga tashlanadi.

Qishloq ko'chalari ozoda, daraxtlari mo'l, har bir turar joy o'ziga xos va shinam qirg'ini e'tiborni tortadi. Ariqdan sharqirab oqayotgan suvning ekinlarga oqishini ketmon ko'targan keksa dehqon nazorat qiladi. Daryo to'lib oqayotgan bo'lsa-da, mahalliy aholi suvni behuda isrof etmaslikka intiladi. Qishloq odamlarining ta'kidlashicha, ariqqa suv chiqarib kelish ham oson emas. Tonxozdaryodan boshlangan ariq bilan qishloq oraliq ancha. Bahor boshlanishi

bilan odamlar hashar uyushtirib, ariq tozalaydi. Daryo band qilinib, suv boshqariladi. Keyin navbati bilan tomorqalar sug'oriladi. Aholining turmush tarzi bilan qiziqdik. Mahalla faollarining qayd qilishicha, ko'pchilik chorvachilik bilan ro'zg'or tebratmoqda, ayrimlar baliqchilikni yo'lga qo'ygan. Keyinchalik davlatimiz rahbarining ko'rsatmasiga asosan afv etilib, yangi hayot boshlash imkoniga ega bo'lgan. Biroq ozodlikka chiqqanidan so'ng uni "Endi jamiyatda o'z o'mimni topa olamanmi?" degan savol qiyndir.

U bu savolga halol mehnat bilan javob topishni maqsad qildi. Tajribali kishilarning maslahatiga quloq tutdi. Mahalla tizimi orqali imkoniyatlardan foydalana bildi.



Hisor mahallasida hokim yordamchisi sifatida faoliyat yuritayotgan Farrux Po'latov uning rejalarini bilan tanishdi. Kerakli yo'l-yo'riqlar berdi. Bu Umiddning hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

— Ertaga nima ro'y berishini sezmas ekan

kishi. Shunchalik bo'lishi xayolimga ham kelmagandi. Shundan so'ng yashashdan maqsadim qolmadi hisob, tushkunlikka tushib qolganim. Oradan vaqt o'tib, Prezidentimiz afv etgach, muddatidan oldin ozod etildim, — deydi Umid Arslonov. — Ozodlikka chiqqanidan so'ng

hayotimni qayta yo'lga qo'yish oson kechmadi. Qiyinchiliklar ko'p bo'ldi. Shunda hokim yordamchisi muammolarimni tinglab, amaliy yordam berdi. Maslahatlar asosida baliqchilikni boshlashga qaror qildik. Shu maqsadda 10 million so'm imtiyozli kredit ajratildi. Bu yo'nalishda islohotning malakali kishilar bilan shubhatlashdim, tajribasini o'rganishga boshladim...

Shu tariqa Umid faoliyatini baliqchilikdan boshladi. Hovuz tayyorlab, zarur jihozlar o'rnatildi. 1000 dona xonbaliq chavog'ini parvarishlashga kirishdi.

— To'g'ri, avvaliga o'ziga yarasha qiyinchiliklar bo'ldi, ayrim yo'qotishlarga ham duch keldik. Ammo mutaxassislar ko'magi bilan ishimizni izga soldik. Endi bu borada tajribani yanada boyitishga harakat qilaman. Kelgusida faoliyatimni kengaytirish niyatim bor. Bu borada ham mahalla faollari doimo ko'mak berishga tayyor ekanini aytib, dalda berib keladi, — deydi yigit.

Umiddning ishga munosabatini ko'rib, ko'zlagan rejasini sari dadil borayotganini anglash qiyin emas. Bundan ham muhimi, uning yashashga qiziqishi, odamlarga ishonchi ortib, orzu-umidlari tiklanayapti.

*** Ma'lumotga ko'ra, hududda 4500 dan ortiq kishi istiqomat qiladi. Hisor mahallasida

Xalqaro baholar va moliyaviy erkinlik

Bugun mamlakat iqtisodiyotiga berilgan baho faqat ichki statistik ko'rsatkichlar bilan emas, balki xalqaro moliyaviy institutlarning xulosalari orqali ham shakllanadi. Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy bahosi muhim tashqi signal sifatida baholanmoqda. Unda mamlakatda yuqori iqtisodiy faollik sharoitida barqaror o'sish saqlanib qolayotgani alohida qayd etilgan.

Mutaxassislar fikricha, bunday xulosalar oddiy raqamlar yig'indisi emas. Ular ortida makroiqtisodiy siyosat barqarorligi, inflyatsiyani boshqarish tizimi, budjet intizomi va islohotlar izchilligi kabi omillar turadi. Ya'ni xalqaro institutlar baho berayotganda bir davr natijasini emas, balki uzoq muddatli yo'nalishni tahlil qiladi. Shu ma'noda, ijobiy xulosa mamlakatdagi islohotlar strategik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganini anglatadi.

Shuningdek, joriy yil mamlakatimiz nufuzli "Iqtisodiy erkinlik indeksi"da 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor iqtisodiyoti mo'tadil erkin davlatlar qatoridan joy oldi. Bu holat oddiy reyting o'zgarishi emas, balki iqtisodiyotdagi chuqur institutsional transformatsiyaning tashqi tasdiqi.

Iqtisodiy erkinlik tushunchasi faqat bozorni ochish yoki davlat ishtirokini kamaytirish bilan cheklanmaydi. U, avvalo, tadbirkor uchun teng imkoniyatlar yaratilishi, huquqiy kafolatlarning ishonchligi, qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik va iqtisodiy munosabatlarda adolat tamoyillari mustahkamlanishi bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, indeksdagi o'sish real hayotdagi islohotlar natijasidir.

Kuzatuvlarga ko'ra, xalqaro baho va ichki islohotlar bir-birini to'ldiradi. Ya'ni bir tomondan Xalqaro valyuta jamg'armasining ijobiy xulosasi makroiqtisodiy barqarorlikni tasdiqlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiy erkinlik indeksining o'sishi ichki bozor islohotlari chuqurlashganini ko'rsatadi.

Amaliyotda yana bir muhim haqiqat yaqqol ko'zga tashlanmoqda: iqtisodiy tizimdagi har qanday raqam ortida inson omili turadi. Qayerdadir bir korxonada ishga tushsa, ish o'rinlari paydo bo'ladi; qayerdadir byurokratiya qisqarsa, yangi tashabbuslar kuchayadi. Demak, iqtisodiyot faqat hisobotlar emas, balki real hayot manzarasi.

Xalqaro baholar va iqtisodiy erkinlik indeksidagi ijobiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining nafaqat o'sish bosqichida, balki sifatlari transformatsiyasi jarayonida ekanini ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy siyosatning tashqi e'tirof va ichki islohotlar yig'unligi asosida rivojlanayotganini anglatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan hozirgi o'zgarishlar oddiy o'sish bosqichidan chiqib, tizimli yangilanish davriga kirgan. Bu davrda iqtisodiy siyosat samarasi avvalo jamiyatda shakllanayotgan yangicha iqtisodiy tafakkur, mas'uliyatli qarorlar va kengayib borayotgan imkoniyatlarda namoyon bo'lmoqda.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar ham aynan shu yo'nalishni tasdiqlaydi. Bugun iqtisodiy siyosat markazida o'sish sur'atlari hamda uning sifati, barqarorligi va real hayotga ta'siri turibdi. Har bir iqtisodiy ko'rsatkich ortida yangi ish o'rinlari, tadbirkorlik rivoji, eksport salohiyati va aholi farovonligi kabi aniq natijalar mujassam bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Raqamlar va rejalar qanchalik yirik bo'lmasin, amalda seziladigan natijaga aylanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yanadan ta'kidlandi. Chunki iqtisodiy siyosatning haqiqiy mezon hisobotlar emas, balki odamlar hayotida yuz berayotgan o'zgarishlardir.

Oxir-oqibat barcha muhokamalar yagona xulosaga olib keladi: bugungi sharoitda har bir rahbar uchun asosiy vazifa tizimli ishlash, shaxsiy mas'uliyatni to'liq his qilish va har bir qarorni aniq natija bilan o'lchashdir. Ana shundaygina iqtisodiy o'sish barqaror, samarali va jamiyat uchun real mazmun kasb etadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

aholini band qilish va daromad manbalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Aksariyat o'zini o'zi ish bilan ta'minlab, mo'may daromad topmaypti.

— Mahallamizning asosiy drayver yo'nalishi chorvachilik va baliqchilik. Shu bilan birga, qo'ziqorin yetishtirish ustida ishlayapmiz, — deydi hokim yordamchisi Farrux Po'latov. — Ushbu yo'nalishlar bo'yicha yil boshidan buyon 300 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit ajratildi. Eng muhimi, ular uchun alohida biznes-reja ishlab chiqilgan. Aytaylik, kimdir chorvachilikni, yana kimdir baliqchilikni ma'qul ko'rishi mumkin. Hozir qo'ziqorin yetishtirishga ham qiziqish bildirganlar oz emasa. Mahallada ulami qo'llab-quvvatlash tizimi samarali ishlayotir.

Hisor tog' tizimlari bag'rida joylashgan, suv va havosi masaffo qishloqlar manzarasi bu yerni turizm uchun ham jozibador manzilga aylantirish imkonini bergan. Bahor va yoz oylarida atrofdagi qishloqlarga kelib, dam oluvchilar safi yil sayin ortib boryapti. Bu esa aholi bandligini ta'minlab, sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga zamin yaratmoqda.

Qishloqda hayot qaynaydi. Orta qaytar ekanimiz, yo'lar yaxshilanib, ushbu manzil ham farovonlashayotganiga amin bo'ldik. Muhimi, odamlar muammollar bilan emas, bunyodkorlik rejalarini bilan yashamoqda.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Media haftalik

BILIM, AMALIYOT VA NATIJA UYG'UNLIGI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi tashabbusi bilan mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan media haftalik tadbirlari 27-aprel - 1-may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tdi.



Yoshlar ishlari agentligi, Jurnalistlar uyushmasi va Samarqand viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi haftalik ham muvaffaqiyatli yakunlandi. Keng qamrovli dastur media sohasi vakillari, axborot xizmatlari xodimlari, blogerlar hamda yosh kontent yaratuvchilarni bir maydonga jamlab, ularning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi.

Haftalikka umumiy hisobda 700 nafarga yaqin ishtirokchi jalb etildi. Tadbirlarda malakali ekspertlar ishtirok etib, o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

Media haftalik doirasida auditoriya bilan media xavfsizlik, faktcheking, strategik kommunikatsiya, sun'iy intellekt imkoniyatlari, SMM va algoritmlar, vizual storytelling, axborot xizmatlari samaradorligi, qonunchilik va kasb etikasi, antikrizis kommunikatsiya kabi dolzarb mavzularda bugungi holat muhokama qilindi. Shuningdek, kelgusida sohani takomillashtirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar va yondashuvlar ishlab chiqildi.



Ayniqsa, dasturning amaliy yo'naltirilgani — treninglar, mahorat darslari, keys tahlillar va mediaforum orqali ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalarini real jarayonlarda sinab ko'rish imkoniyati yaratilgani alohida ahamiyat kasb etdi. Haftalik yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirilib, erishilgan natijalar sarhisob qilindi.

Ishtirokchilar mashg'ulotlarda "O'zbekiston bosma mediasidagi kontent: amaliyot, muammo va yechim", "Prezident faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritishning asosiy yo'nalishlari", "Mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy tarmoqlardagi



amaliyotidan keyslar tahlili" kabi mavzular bo'yicha fikr almashdi.

Mashg'ulotlarning o'ziga xosligi shundaki, u quruq ma'ruzalardan iborat bo'lmadi. Samarqanddagi ushbu haftalik davomida malakali ekspertlar real keyslar yordamida yosh media vakillari va talabalarning sohadagi ayrim to'liqlarni qanday yengib o'tish va zamonaviy trendlarni auditoriya talabiga moslashtirish bo'yicha mahorat darslari o'tkazildi.

Umuman olganda, respublikamiz bo'ylab tashkil etilayotgan bunday media haftaliklari orqali O'zbekiston media makonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan. Qolaversa, haftalik hozirdanoq kutilgan natijalarni bermoqda — sohada yangi yondashuvlar shakllanmoqda, media va jamoatchilik o'rtasidagi muloqot yanada jonlanmoqda.

Kelasi hafta navbatdagi manzil — Navoiy viloyati. Ushbu hududda 4-8-may kunlari media sohasi vakillari uchun amaliy va mazmunli dastur tashkil etish rejalashtirilgan.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bugun qishloq xo'jaligiga har qachongidan ko'proq e'tibor qaratish zarur. Nega? Chunki iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi kabi tahdidlar agrar tizimni mutlaqo yangi yondashuvlar asosida isloh qilish, shu jumladan, soha uchun yuqori malakali va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda.

QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'ZGARISHLAR MUTAXASSISLARDAN YUQORI MALAKA TALAB ETADI


O'zbekiston iqtisodiyotining 20 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi. 3,5 million yurtdoshimiz mehnat qilayotgan sohada yiliga 467 trillion so'mlik mahsulot yaratiladi. Meva-sabzavotlarimiz esa ichki ehtiyojni qoplash bilan birga 83 davlatga eksport qilinadi. So'nggi o'n yilda sohada davlat boshqaruvi takomillashtirish, bozor mexanizmlari, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimizning joriy yil 11-apreldagi "Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori esa agrar ta'lim tizimini tubdan yaxshilashga qaratilgan navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Islohotlar jarayonida mazkur universitet faoliyatini transformatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Boisi, salkam yuz yillik tarixga ega oliy ta'lim muassasasi nainki yurtimiz, balki Markaziy Osiyo uchun malakali kadrlar tayyorlaydigan eng yirik dargohlardan biridir. Qarorda universitetning innovatsiyalar, xalqaro standartlar va aniq natijaga yo'naltirilgan mutlaqo yangi modelini yaratish bo'yicha qator muhim vazifalarni ko'zda tutilgan. Jumladan, 2030-yilga qadar universitetni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlaridan biri sifatida xalqaro reyting tashkilotlarining yetakchi 500 talik oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritishga erishish belgilangan. Buning zamirida ta'lim muassasasining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish vazifasi bilan birga qator kompleks chora-tadbirlar mujassam. Qolaversa, hujjatda belgilanganidek, ushbu maqsadga erishish doirasida xalqaro hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar sonini 3 barobar, xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim dasturlari sonini 4 barobar, shuningdek, qo'shma ta'lim dasturlarini 20 taga, o'quv-ilmiy laboratoriyalar sonini 20 foiz oshirish ko'zda tutilgan. Shu tariqa o'quv rejalarini, ta'lim usullari va bilimlarni baholash tizimi eng ilg'or jahon amaliyotlari bilan uyg'unlashtirildi.

2026/2027-o'quv yilida universitetning Ekofiziologik tadqiqotlar ilmiy laboratoriyasini ISO/IEC 17025:2017 xalqaro standarti bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazish rejalashtirilgan. Bunday chora-tadbirlar natijasida yangi, dolzarb yo'nalishlardagi tadqiqotlar ko'lami



Nuqtayi nazar



Sayora XOLMIRZAYEVA,
Toshkent davlat agrar universiteti kafedra mudiri, professor

kengayadi, universitet esa global ilmiy muloqotning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi.

Prezidentimiz o'tgan yil 17-noyabr kuni paxtachilikda samaradorlikni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish chog'ida agronomlarni tayyorlaydigan oliygohlar bitiruvchilari uchun dual ta'lim mexanizmi joriy etilishini ma'lum qilgan edi. Bu masalaga qarorda ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va sohalarning xususiyatidan kelib chiqib, universitetning yuqori kurslarida o'qishni nazariy ta'limgan ajralgan holda 4 oy muddatga uzluksiz dual ta'lim asosida tashkil etish, buning uchun qator yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutilmoqda.

Qarorga ko'ra, universitet tarkibida yangi tuzilma — Agroxizmatlar departamenti tashkil etiladi. Uning zimmasiga fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalariya konsalting xizmatlari ko'rsatish, zamonaviy ko'chma laboratoriyalar ochish, raqamli agroxizmatlar platformasini shakllantirish kabi qator vazifalar yuklatilgan.

Yana bir muhim yangilik — universitet huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Agromuhandislar maktabi tashkil etiladi. Amaliyotga yo'naltirilgan yangi maktab byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ishlab chiqarish bilan bevosita uyg'un holda faoliyat yuritadi. Bunda korxonalar bilan hamkorlikda sun'iy intellekta asoslangan laboratoriyalar yaratilib, ishlab chiqarish muammolari portfeli asosida tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari bajariladi.

Xalqaro reytinglarga kirish, raqamlashtirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish kabi maqsadlar ortida bir fundamental o'zgarish yotibdi. Gap Toshkent davlat agrar universitetining boshqaruvi va institutsional modelini tubdan o'zgartirish haqida ketyapti. Belgilangan chora-tadbirlardan ko'rinib turibdiki, hujjat asosida universitetni mustaqil, mas'uliyatli va natijadorlikka yo'naltirilgan barqaror muassasaga aylantirish maqsad qilingan. Qarorda agrar ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini transformatsiya qilishni nazarda tutuvchi tub islohotlar aks etgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligining taqdiri va kelajagi butun mamlakatimizning taqdiri va kelajagidir. Barqaror va farovon kelajakni barpo etish uchun esa universitetning har bir xodimi islohotlarga kamarbasta bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi lozim.

YANGI O'ZBEKISTON: MAHALLA — AN'ANALAR — INSONIY QADRIYATLAR



Qayd etilganidek, bugun mahallalardagi har bir islohot, har bir obodonchilik va infratuzilma loyihasi odamlarning kayfiyatini, davlat va kelajakka ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2026-yil yurtimizda Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e'lon qilinganida ham katta ma'no-mazmun mujassam. Bu mahalla faqat hududiy birlik emas, balki ijtimoiy kapital, birdamlik maktabi, tarbiya va hamjihatlik manbai ekanidan dalolat beradi.

Tanlov Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

2026-yil fevralda start olgan ushbu tanlovda yurtimizning barcha hududlaridan 21 yoshdan katta ijodkorlar faol ishtirok etib, mahalla institutining jamiyatdagi o'rni, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar, insoniylik, mehr-ohqab kabi mavzularni o'z asarlarida yuksak badiiy saviyada aks ettirdi. Hududiy bosqichlar yakuniga ko'ra, eng yaxshi asarlar saralab olinib, yakuniy ko'rgazmaga qo'yildi.

Ko'rik-tanlov yurtimizning barcha hududlarini qamrab oldi. Jumladan, 8831 ta mahalladan qariyb 9,5 ming ishtirokchi 10 mingdan ziyod rangtasvir asari bilan ishtirok etdi. Har bir tuman va shahar bosqichida saralangan g'oliblar orasidan 1040 ta eng yaxshi asar respublika bosqichiga yo'l oldi. Ularning 201 tasi esa saralanib, maxsus katalogga kiritildi. Bu raqamlar nafaqat ko'rik-tanlovning ko'lami, balki yurtimizda tasviriy san'atga qiziqish va ijodiy muhitning qiy darajada rivojlanayotganini ham yaqqol namoyon etadi.

Tadbir doirasida O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Badiiy akademiya va Yoshlar ishlari agentligining o'zaro hamkorlik to'g'risidagi

memorandumida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahrida joriy yilning 1-5-may kunlari bo'lib o'tadigan rangtasvir asarlari ko'rgazmasining tantanali ochilish marosimi ham o'tkazildi.

Ko'rgazmaning ochilish marosimi avvalida maxsus tayyorlangan videorolik namoyish etildi. Tadbirda O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev, O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nur, taniqli rassom Tursunali Qo'ziyev, AQSHning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Xenrik, Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi rahbari Yu Jun hamda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakili Sabine Maxl so'zga chiqib, mazkur tanlovning ahamiyati va unda ilgari surilgan g'oyalari haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirdi.

Ko'rik-tanlov yakuniy bosqichida birinchi o'rinni Farg'ona tumanidan Otabek Shokirov "Oqibat" asari, ikkinchi o'rinni Termiz shahridan Tursunqul Shoymardonov "Opamga to'y keldi" asari, uchinchi o'rinni esa "Xonadon fayzi" — keksalar duosi bilan ko'kar olam" asari bilan Qoraqalpoq'iston Respublikasi Kegeyli tumanidan Nurjau Dyuysenbayev qo'lga kiritdi.

Shuningdek, Toshkent viloyati Ohangaron shahridan Erkin Yo'ldoshev "Eng yaxshi original g'oya", Navoiy viloyati G'ozg'on shahridan Ashuroy Adizova "Eng yaxshi grafik rassom" va Toshkent shahri Yangibayot tumanidan Zuhridin Qiyomov "Eng yaxshi rangtasvirchi rassom" nominatsiyalari bo'yicha g'olib deb topildi.

Tanlov g'olib va sovrindorlari qimmatbaho sovg'alar hamda diplom bilan taqdirlandi. Mazkur tanlov va ko'rgazma mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini yuksaltirish, milliy qadriyatlarini targ'ib etish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insoniylik va ma'naviy yetuklik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Birlashsak — katta kuchmiz

OMMAVIY SPORT — SOG'LOM JAMIYAT GAROVI



Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan so'ng Surxondaryo viloyatidagi mas'ul boshqarmalar hududda "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqdi. Tumanlarda sport bilan muntazam shug'ullanishda marralar katta olindi.



Raqamlarga murojaat qilsak, hozir Bandixon tumanidagi sport maktabida yoshlar sportning 23 turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Shuningdek, tuman sportchilari 2024-2025-yillarda respublika, Osiyo va jahon miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda 28 ta sovrinli o'rinni qo'lga kiritdi. Hozir aholining ommaviy sportga qamrovi 32 foizga yetkazilgan, 20 mingga yaqin yigit-qiz sport bilan shug'ullanmoqda. "Besh tashabbus" olimpiadasiga qamrov sezilarli darajada oshgan. Sport maktabi tarbiyalanuvchilari yaxshi natijalar ko'rsatmoqda. 2025-yilda 146 sportchi respublika va xalqaro musobaqalarda sovrindor, 19 nafari esa Osiyo va jahon chempionati g'olibi bo'lgan. 2026-yilning birinchi choragidagi 20 sportchi respublika musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Endi seleksiya tizimini takomillashtirish doirasida ommaviy musobaqalarda ajralib

turgan iqtidorli yoshlar saralab olinib, sport maktablariga yo'naltiriladi, — deydi murabbiy Baxtigul Mengliyeva. — Natijada tuman ham sport bilan muntazam shug'ullanuvchilari soni yanada oshadi. Shuningdek, mahallalarda trener-seleksiya faoliyatini yo'lga qo'yilib, iste'dodli yoshlarni aniqlash va ularning iqtidorini rivojlantirish tizimi yanada mustahkamlanadi.

Olimpiya va paralimpiya harakatini qo'llab-quvvatlash ham ustuvor vazifalardan. Bu yo'nalishda yangi iqtidorli sportchilarni tayyorlash, viloyat va xalqaro miqyosdagi yig'inlar hamda musobaqalarda jalb etish rejalashtirilgan. Buning uchun tajribali murabbiylar jalb qilinib, tuman sport jamoalarining salohiyati oshirildi.

Har shanba mahallalarda jismoniy tarbiya va sport bilan hamnafaslik kuni sifatida belgilangan ham aholining jismoniy mashg'ulotlardagi ishtirokini yanada oshirish imkonini bermoqda.

Bandixon tumanida 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida sog'lom turmush, salomatlik va jismoniy barkamollik uchun sport bilan shug'ullanish an'anaga aylanib ulgurgan. Hozir tuman "Besh tashabbus" olimpiadasi sport musobaqalarida ishtirok etish istagidagi 19 ming 599 o'g'il-qiz elektron ro'yxatdan o'tgan.

Uzun tumanida ham jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholi o'rtasida keng targ'ib etish, o'z navbatida, sog'lom turmush tarzini qaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tumanidagi sport maktabida 1500 dan ziyod yosh sportning 23 turi bo'yicha muntazam shug'ullanmoqda. Shuningdek, tuman sportchilari respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda 120 ga yaqin, xalqaro musobaqalarda esa 20 ga yaqin sovrinli o'rinni egallagan. Aholini ommaviy sportga qamrab olish darajasi 32 foizga yetkazilgan, 61 mingdan ortiq yosh sport bilan shug'ullanmoqda.

Mazkur tuman ham "Besh tashabbus" olimpiadasiga qamrov sezilarli darajada oshgan. Sport maktabi tarbiyalanuvchilari yaxshi natijalar ko'rsatmoqda. 2025-yilda 146 sportchi respublika va xalqaro musobaqalarda sovrindor, 19 nafari esa Osiyo va jahon chempionati g'olibi bo'lgan. 2026-yilning birinchi choragidagi 20 sportchi respublika musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga sakson yildan oshgan bo'lsa-da, uning bashar ruhiyatidagi jarohatlari, dil yaralari hanuzgacha bitgani yo'q. Chimildiq ko'rmagan yigitlar, yetim qolgan bolalar, farzandi, turmush o'rtog'i va aka-ukalari yo'lga intizor ko'z tikkanlarning alamlil hayot yo'li yuraklarni o'rtaydi. Matonat, sabr-toqat, mardlik va jasorat timsoli bo'lgan mushfiq onalar hamda otalarning matonati, sabr-bardoshiga ta'zim qilamiz. Olovli yillarining tirik afsonalari bosib o'tgan hayot yo'li haqidagi hikoyalarni tinglab, farovonlik va tinchlik-totuvlik hamma narsadan ustun ekanini anglab yetamiz, dorilamon kunlar uchun shukrona keltiramiz.



ORTIDAN YETTI BOR QORAXAT KELGAN ASKAR



— Urush boshlanganda 21 yoshda edim, — deya xotirlaydi oqsoqol. — Omoch bilan yer haydayotgan edim. Kolxoza vakil kelib, rais so'roqlayotgani va idoraga borishim kerakligini aytdi. Uygaham kirmay, aytilgan joyga yetib borsam, qo'limga chaqiruv qog'ozi berildi. O'shanda otam 84, onam esa 75 yoshda edi. Yigirma kun deganda front chizig'iga yetib bordik. Moskva atrofida jangda qanday harakat qilish, himoyalanih, hujumga o'tish, transheyalar qazish va qurollardan foydalanish bilan bog'liq mashqlarni bajardik.



kerakligini aytdi. Uygaham kirmay, aytilgan joyga yetib borsam, qo'limga chaqiruv qog'ozi berildi. O'shanda otam 84, onam esa 75 yoshda edi. Yigirma kun deganda front chizig'iga yetib bordik. Moskva atrofida jangda qanday harakat qilish, himoyalanih, hujumga o'tish, transheyalar qazish va qurollardan foydalanish bilan bog'liq mashqlarni bajardik.

Sanoqli askar tirik qolgandi o'shanda...

So'zlar, otaxonning ko'zi namlanadi, dastro'mol bilan mijjasiga ingan yoshlami artadi va quruqshagan tomog'ini namlash uchun choy bo'playdi.

— Kurs viloyati uchun jangda fashistning 7 ta tankini yo'q qilganman, — deya so'zini davom ettiradi u. — Yonimda snaryad portladi. O'shanda meni halok bo'ldi deb o'ylab, uyimga qoraxat jo'natilgan ekan. Bir kundan so'ng tuproq uyumi ostidan behush holda kovlab olishgan. Qattiq yaralanib, gospitalda davolanimgidan so'ng yana janglarda ishtirok etib, Germaniyaga

qadar yetib borganman. Urush yillari uyimizga yetti marta qoraxat kelgan ekan. Ota-onam bu alama chiday olmagan...

Urushning olov yillari Usmonjon ota uchun birdan yakun topmadi. U rus-yapon frontida kechgan og'ir janglarda ham ishtirok etib, mardlik va matonat ko'rsatdi. 1948-yili ona qishlog'iga qaytib, jamoa xo'jaligida ishladi. Urushdan keyingi yillari ham oson kechgan yo'q. Og'ir jismoniy mehnat, ochlik va yuqunlik ko'plab qiyinchiliklarga sabab bo'lgan. Usmonjon ota Qo'qon temir yo'l tarmog'ida ishladi, oila qurdi. Ellik yetti yil mehnat qilib,

nafaqaga chiqdi. Turmush o'rtog'i bilan 6 farzandni tarbiyalab, elga qo'shdi. Bugun esa o'nlab nabira, chevara va evaralar davrasida umrguzaronlik qilyapti.

— Bugungidek farovon, emin-erkin zamon hech qachon bo'lmagan, — deydi otaxon. — Bir burda nonga zor bo'lib, jon berganlarni ko'rganmiz. Shukrki, dasturxonimiz to'kin, osmonimiz tinch. Barcha sharoit yetarli, hamma narsa bisyor, biror manzilga boraman desangiz, piyoda yurmaysiz. Keksalarni e'zozlash, izzat-hurmat ko'rsatish, qadrlash va xotirlash yo'lida qilinayotgan ishlar umrimizga umr qo'shmoqda. Davlatimizga rahmat.

Urushning tirik guvohi bo'lgan Usmonjon ota hali bardam va so'zga chechan. U maktabdan kelgan chevaralari Ramzxon hamda Shukurjonni ilg'ab, yoniga chorladi. "O'qishlarning a'lomi" deya bolalarning boshini silab, peshonasidan o'pdi.

— Otam bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Uning hayot yo'li biz uchun ibrat, — deydi Masturaxon Rahimova. — Otamdan oilaparvarlik, halol mehnat va shukronalik xislatlarini o'rgandik. U uzoq yillar asalari boqqan. Ushbu hunar bugun ham oilamiz koriga yaramoqda. Hozir 20 dan ortiq asalari oilasi bor. Bu borada bilmaganlarimizni otamdan so'rab o'rganib, tajriba oshiryapmiz.

Xotira va qadrlash kuni arafasida bir asrluk umr dovonidan oshgan nuroniyini yo'qlash, u bilan hamsuhbat bo'lish istagidagilarning qadami uzilgani yo'q. Usmonjon ota kabi nuroniyning shonli umr yo'li va faoliyati xalqimizning bebaho ma'naviy boyligiga aylanih, yosh avlodni vatanparvar insonlar etib kamol toptirishda jasorat hamda matonat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Olovli yillar afsonasi bo'lgan Usmonjon ota urush yillarining suronli voqea-hodisalari bilan bog'liq mahzun xotiralari haqida so'zlab beradi, mehmonlarni alqab, duo qilishdan charchamaydi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Sherzod QORABOYEV olgan surat.



Ibratli umr

Yoshim to'qsonda. 1955-yildan buyon Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab kelyapman. O'tgan vaqt mobaynida ko'plab voqea va hodisalarning tirik guvohi hamda ishtirokchisi bo'ldim. Yillar davomida universitet nomi va maqomi bir necha marta o'zgardi. Lekin u doim eng ilg'or oliy o'quv yurtlari safida qoldi.



Bugun mazkur oliy ta'lim dargohida uzoq yillar rahbarlik qilgan olim — iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Muhammadjon Qoriyev haqidagi xotiralarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

U 1906-yili Qo'qon shahrida dunyoga kelgan. Keyin uzoq yillar ish va ilm bilan shug'ullandi, turli vazifalarda mehnat qildi. Jumladan, 22-yil universitetda rektor lavozimida ishladi.

OTMning shon-shuhrati, rivoji va ravnaqi, mavqei, salohiyati rahbarning oqilligi, tadbirkorligi, insonparvarligi, bilimdonligi, jamoani boshqarish qobiliyatiga bevosita bog'liq.

Ana shu jihatlarining barchasi Muhammadjon Qoriyevda mujassam edi. U rahbarlik qilgan davrda oliyog'ohda ko'p yangiliklar bo'ldi. OTM nafaqat mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo uchun iqtisodchi kadrlar tayyorlaydigan yirik ilm maskaniga aylandi.

Domlanning tashabbusi bilan bir qancha yangi fakultet va kafedralar ochildi. Uchta o'quv binosi va ikkita yotoqxona qurildi. Yangi mutaxassisliklar ochilishi talabalar sonining sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro hurmat, insoniy munosabatlar qaror topishiga katta e'tibor qaratildi.

ADOLATLI, TALABCHAN, MEHRIBON VA HALOL



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-iyundagi farmoni bilan Toshkent xalq xo'jaligi institutiga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti maqomi berildi. OTM 95 yillik murakkab, shon-sharafga to'la yo'lni bosib o'tdi. Uning butun faoliyati zamon talablariga to'liq javob beradigan, kelajakni oldindan ko'ra biladigan oliy malakali iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash hamda iqtisodiyot ilmini yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarishga qaratildi.

Shu o'rinda Muhammadjon Qoriyev hayotiga oid ba'zi voqea-hodisalarni eslab o'tsam.

1966-yil 26-aprel tongida Toshkentda ro'y bergan zilzila shaharni larzaga keltirdi. Xonadonlardagi hamma narsa u yoqdan-bu yoqqa borib kelar, yer silkinishi odamni esankiratgudek darajada kuchli va vahimali edi.

Zilzila tufayli domlanning shahar markazidagi uyi yashashga yaroqsiz holatga kelib qoldi. Shu sababli unga Chilonzor tumanidagi Oqtepa mahallasidan uy qurish uchun yer ajratildi. Muhammadjon aka o'sha paytda katta institut rektori edi. Lekin uyni davlat krediti hisobidan qurib bitkazdi. Keyin bir necha yil kreditni maoshidan to'lab yurdi.

1966-yili domla 60 yoshga to'ldi. Yubiley tadbiri 2-mayga belgilangan edi. Ushbu tadbir o'tkaziladigan joy sifatida institutning talabalar

oshxonasi tanlandi. Shu voqeaning o'zi ham professoring nechoq'liq odmi, kamtar inson ekanidan darak beradi.

Tadbir belgilangan vaqtda boshlandi. Unda o'sha paytdagi oliy ta'lim vaziri, akademik Toshmuhammad Sarimsoqov boshchiligidagi vazirlik xodimlari, Nabi Rahimov, Lutfixonim Sarimsoqova, O'zbekiston xalq hofizi Murodjon Ahmedov, yozuvchi Sobir Abdulla va boshqa nufuzli mehmonlar hamda institut jamoasi qatnashdi. Yubiley ixcham va esda qoladigan darajada o'tdi. Kechada Nabi Rahimov bilan domla o'rtasida askiya payrovi ham bo'ldi. Domlanning so'zga ustaligi, zukkoligi, hozirjavobligi ko'pchilikni lol qoldirdi.

Domla o'ziga birkirtilgan aspirantlar bilan har juma kuni tushdan keyin uchrashar va hafta davomida qilingan ishlar haqida hisobot so'zlar. Subhatga kelmaganlar dashnom eshitardi.

Bir juma kuni, yangilishmasam 1970-yillar edi, qabulxonasiya kelsam, odam juda ko'p ekan. Qaytib ketib, kechqurun domlanning uyiga bordim. Darvoza ochiq. Qo'ng'iroqni bosdim, hech kim javob bermadi. Tavakkal qilib, hovliga kirdim. Hech kim yo'q. Shundan so'ng eshigi ochiq turgan xonalardan biriga sekin mo'raladim. Domla uy kiyimida xonaning o'rtasida belanchakda yotgan bolani ovqatlantirmoqda edi. U meni ko'rib, uyga taklif qildi va "Sen rektorga maza deb o'ylaysanmi?"

Mana, men ishdan keyin bola boqib, unga qarab o'tiribman", dedi.

Ana shu holatning o'zi ham domlanning oilaparvar va kamtarin inson ekanidan dalolat, albatta. Men bolalar aravachasida ko'rgan o'sha qizaloq, ya'ni domlanning nabirasi Shahlo bugun G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti dotsenti. Men har safar Shahloni ko'rganimda o'sha voqeani esiga solib turaman. Bundan u juda xursand bo'ladi. Bobosidan umrbod qarzdorligini aytdi.

Bu dunyoda hamma narsa — mansab, boylik, mashhurlik o'tkinchi ekanini barchamiz yaxshi bilamiz, lekin amal qilmaymiz. Zero, yaxshilik va kimgadir ko'rsatilgan mehr hech qachon unutilmaydi.

Muhammadjon Qoriyev qabuliga turli masalada maslahat so'rab kelgan ko'plab insonlarni va ilm-fan namoyandalarni ko'rganman. Ular orasida akademiklar Yahyo G'ulomov, Vosil Qobulov, Kuzma Lapkin va boshqalar bor. Domla imkon qadar maslahat berar va ulardan ham o'rganar edi.

Bir kuni rektorning qabulxonasi yonidan o'tib ketayotib, navbat kutib o'tirgan otaxonga ko'zim tushib qoldi. Qarasam, oliy ta'lim vaziri, akademik Toshmuhammad Sarimsoqovning otasi Haydarali Sarimsoqov ekan. Haydarali otaning yoniga kelib, nega bu yerda navbat kutib o'tirganini so'radim.

"Nevaram shu institutda o'qiydi. Uning o'qishi bo'yicha maslahatli ish chiqib qoldi. Shuni Toshga (otaxon o'g'lining ismini qisqartirib shunday atardi) telefon orqali hal qilib bergin desam, u "Rektorga bu masalada qo'ng'iroq qila olmayman. O'zingiz borsangiz, yaxshiroq bo'ladi. Muhammadjon Qoriyev sizni yaxshi taniydi. Meni bu masalaga aralashtirilmaganingiz ma'qul", dedi", degan edi.

Bu voqeani keltirishdan maqsad shuki, har qanday mansabdor domlaga telefon orqali biror masalani aytib, hal qildirishga imyanardi. Chunki rektorning juda ham prinsiplial inson ekanini hamma yaxshi bilardi.

Ko'p yillik hayotimda shuni angladimki, qayerda shuhrat bo'lsa, u bilan hasad ham yonma-yon yurar ekan. Domla 1971-yili doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, ammo ushbu ilmiy ishning himoyasini tasdiqlash jarayoni Moskvadagi Oliy attestatsiya komissiyasida ikki yildan ortiq muddatga cho'zilib ketgan. Keyinchalik bilsak, "Doktorlik ishini muallifning o'zi yozmagan", degan yumaloq tal xubyorligan ekan. Shu sababli domla Moskvaga ekspert komissiyasiga chaqirildi. Muhammadjon aka komissiya a'zolarining doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan bergan barcha savoliga to'laqonli javob beradi. Shundan keyin komissiya dissertatsiyani bir ovozdan tasdiqlaydi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarni kreativ va mustaqil fikrlaydigan, insoniyat rivojiga hissa qo'sha oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlanmoqda. Oliy o'quv yurtining bu darajaga yetishida ustoz Muhammadjon Qoriyevning katta hissasi bor, albatta.

Turg'un ZIYAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy doktori

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksli — 236. Buyurtma — G-546.
30570 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy